

## JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA FUQAROLARNI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA RO'LI

**Mirvohidov Behzod Miraziz o'g'li**

Jamoat xavfsizligi universiteti 4-bosqich kursanti

**Hasanov Azizjon Ahrol o'g'li**

Jamoat xavfsizligi universiteti 4-bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11150448>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi va uning nechog'lik muhim ahamiyatga egaligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish uchun yangi usullardan foydalanish haqida ba'zi takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalitso'zlar:** Jamoat xavfsizligi, dron, Milliy gvardiya, xavfsizlik, ommaviy tartibsizliklar, operatsiyalar, uchuvchisiz uchish apparatlari.

### THE ROLE AND IMPORTANCE OF USING DRONES IN MAINTAINING PUBLIC ORDER AND ENSURING THE SAFETY OF CITIZENS

**Abstract.** This article includes the necessity of public safety and its' status also it includes using some new ways for upgrading the level of public safety

**Key words:** Public safety, drone, National Guard, safety, mass chaos, operations, non-pilot flight.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДРОНОВ В ПОДДЕРЖАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА И ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ГРАЖДАН

**Аннотация.** В этой статье написана об общественной безопасности и его статусе, и ещё выдана предложению использование новые методы и факторы для обеспечении общественной безопасности


**Ключевые слова:** общественный безопасность, дрон, Национальный гвардия, безопасность, массовые беспорядки, операции, беспилотные аппараты.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda butun dunyodagi davlatlar qatorida jadal suratlarda rivojlanmoqda. Ushbu rivojlanish davlatimizning barcha sohalarini qamrab olgani hech kimga sir emas. Davlatning rivoji asosida esa tinchlik xavfsizlik yotadi. O'zbekiston Respublikasida ichki tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga juda katta e'tibor qaratilgan. Bunga biz jamoat tartibini saqlash uchun tun-u kun xizmat olib borayotgan Milliy gvardiya harbiy

xizmatchilari va xodimlari qolaversa Ichki ishlar vazirligi xodimlarining faoliyatini misol qilib olsak bo‘ladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash o‘ta dolzarb masala va jamoat tartibi bu xavfsizlik hamda rivojlanishning garovidir. Bu xavfsizlik hamda rivojlanishga biz Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodim)lari va Ichki ishlar xodimlarining zaxmatli mehnatlari va tajribalari orqali erishishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi tinch davlat va jamiyatimizda norozilik kayfiyatidagi odamlarni topish juda mushkul vazifa, ammo “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi” degan maqolga asoslangan holda biz ham jamiyatimiz doimo tinch bo‘ladi deya kafolat bera olmaymiz.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun xalqning muammolari o‘rganilishi va ularga beg‘araz yordam ko‘rsatilishi zarur. Umumiy olib qaraganda jamoat xavfsizligining buzulishi natijasida ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklar quyidagi asosiy sabablardan kelib chiqadi.



Ushbu ommaviy tartibsizliklar kelib chiqmasligi uchun biz eng birinchi bo‘lib, jamiyatimizda norozilik yoki tushkunlik kayfiyati va holatini yo‘qotishimiz zarur. Hozirgi kunda davlatimiz tinch, jamiyatimizda ham hech qanday bu kabi norozilik yoki tushkunlik kayfiyati ham kuzatilayotgani yo‘q. Shu sababli ham davlatimiz oldida turgan asosiy vazifa jamiyatimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlash hamda uni himoya qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga katta e’tibor qaratilgan. Bunga misol tariqasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash uchun ajratilayotgan patrul naryadlarni olsak bo‘ladi. Ushbu naryadlar kun-u tun uzluksiz xizmat olib bormoqda. Ular

o‘z xizmat faoliyati orqali bo‘lishi mumkin turli yomon holatlar, tartibbuzarliklarning oldi olinmoqda.

Jahon tajribalaridan kelib chiqqan hoda davlatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, hamda aholi xavfsizligi nazoratini oshirish uchun Uchuvchisiz uchish aparatlaridan foydalanish anchayin samarali bo‘lar edi. Uchuvchisiz uchish aparatlari foydalanish uchun qulayligi va ko‘p funksional ekanligi bilan ijobiy natijalar ko‘rsatgan. Rivojlangan davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Turkiya davlatlarida dronlardan keng foydalaniladi.



Dronlardan foydalanish bilan biz shaxsiy tarkib qamrab oladigan hududdan sezilarli darajada ko‘proq hududni qamrab olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Dronlar masofadan turib boshqariladi va ularga kuzatuvchi moslama o‘rnatilgan holda tekshiruv-qidiruv harakatlari hamda shunchaki kuzatish ishlarini olib borish imkoniyatlari mavjud. Agarda Milliy gvardiya hamda Ichki ishlar vazirligidan naryadlar tarkibi ushbu dronlar bilan ta‘minlanadigan bo‘lsa jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida yana bitta kata yangilik qilingan bo‘ladi. Dronlar (kvadratkoperlar) yerdan yuqori bo‘lmagan hududda uchgan holda kuzatuv ishlarini amalga oshiradi. Bu esa naryadlar sonini kamaytirib jangovar shaylikni oshiradi. Ko‘ngilsiz hodisalar yuz beradigan bo‘lsa tezkor guruh dron tomondan kuzatilgan so‘nggi hududga yetib boradi va ushbu hodisani oldini olishga harakat qiladi.



Hozirgi kunda Milliy gvardiya asosan jamoat xavfsizligini saqlash va millat manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qilmoqda. Ushbu xizmatni takomillashtirish va uni qamrovini kengaytirish bu davr talabidir. Biz har doim har qanday holatda jamiyatimiz xavfsizligini va tinchligini ta'minlay olishimiz zarur. Bunda turli xil kreativ g'oyalardan foydalanish, yangiliklar qilish, yangi g'oyalarni tatbiq qilish lozim.

Rivojlangan davlatlar qatoridan AQSH ni oladigan bo'lsak AQSH dronlardan nafaqat jamoat xavfsizligini saqlashda balki harbiy sohalarda ham keng foydalanadi. Dronlardan foydalanish reaktiv samolyot yoki vertalyotlardan foydalanishdan ko'ra ancha arzon, samarali va osondir. Harbiy vazifalar razvedka qilish uchun mo'ljallangan dronlar, bombalar yoki pulemyotlar bilan jihozlangan dronlar esa masofadan turgan holda urush yoki harbiy harakat (operatsiyalar) olib borish imkonini beradi. Operatsiyalarni olib borish mobaynida muvoffaqiyatsizlikka uchraygan bo'lsa ham ko'riladigan zarar miqdori real holatdagi samolyot yoki vertalyotlarnikidan anchayin kam bo'ladi.

Ushbu tajribani hisobga olgan holda biz ham davlatimizda Uchuvchisiz uchish aparatlaridan foydalanishni rivojlantirishimiz zarur. Masalan agar biz bitta bo'linmani uchta dron bilan ta'minlay olsak biz o'sha bo'linma qo'riqlaydigan hududni to'liq nazorat ostida ushlay olamiz. Dronlar tabiat uchun zararsizdir yani ular akkumulyator bilan jihozlangan bo'lib ular elektr toki orqali harakatlanishadi. Elektr toki esa yoqilg'i turlari ichida eng arzonlaridan hisoblanadi.

Dronlarni jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun ishlatish bu Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun ajratilgan naryadlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Ushbu yangilikni qo'llash uchun bizga dronlardan tashqari ularni mohirlik bilan boshqara oladigan mutaxassis hamda unga texnik yordam ko'rsata oladigan mexanik ustalar ham kerak bo'ladi. Bunday mutaxassislarga ega bo'lish uchun biz boshqa rivojlangan va Jamoat tartibini saqash, harbiy sohalarda dronlardan foydalanuvchi shaxslar tomonidan mahorat darslari o'tilishi va ularga dastlabki ko'nikma va bilim berilishi o'rinli bo'lar edi. Masalan **Parrot Bebop 2 FPV** kamerali dron 8 Gb ichki xotiraga ega va virtual ko'zoynak orqali ishlatiladi, uchish davomiyligi 2 – 3 soatni tashkil etadi. Ushbu vaqt oralig'ida dron katta hududni kuzata oladi. Buning natijasida tezkor harakatlanuvchi guruhning ham patrul naryadlari kamayadi va shu sababli xizmat samaradorligi oshadi.



**REFERENCES**

1. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik//A.X.Saidov, M.X.Rustambayev, O.Xusanov va boshqalar-Toshkent:Compex print, 2019-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev Bilimli avlod-buyuk kelajakning,tadbirkor xalq-faravon hayotning do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.//O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.Xalq so'zi -2018 yil 8 dekabr.
3. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichlarga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida 2021 yil 26 mart PF-6196 son